

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2020–yilning yanvar – sentabrida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o`rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 8266,5 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019–yilning yanvar – sentabri bilan taqqoslaganda 1,3 % ga ko'paydi. YaHM deflyator indeksi 2019–yil yanvar – sentabridagi narxlarga nisbatan 106,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 2,0 % ga yetdi.



Yanvar – sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>2019–yil yanvar – sentabriga nisbatan, % da</i>
		<i>2019–yil yanvar – sentabr</i>	<i>2020–yil yanvar – sentabr</i>	
I. YaHM		7 680,1	8 266,5	101,3
<i>shu jumladan:</i>				
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 079,7	8 040,8	101,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	600,4	225,7	101,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati		7 079,7	8 040,8	101,3
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3 059,1	3 460,8	103,1
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 234,5	2 574,8	101,5
	sanoat	1 608,9	1 849,8	102,0
	qurilish	625,6	725,0	100,3

		Mlrd. so'm		<i>2019–yil yanvar – sentabriga nisbatan, % da</i>
		<i>2019–yil yanvar – sentabr</i>	<i>2020–yil yanvar – sentabr</i>	
	Xizmatlar	1 786,1	2 005,2	97,9
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	397,1	398,6	88,6
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	279,6	313,9	104,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 109,4	1 292,7	99,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 9 707,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 % ga kamaydi.



Yanvar – sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 0,2 punktga kamaydi va hisobot yilida 43,0 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog'ining ulushi 23,0 % dan iborat bo`lib, 0,3 punktga oshdi. Qurilish tarmog'ida 0,2 punktga oshdi va 9,0 % ni tashkil qildi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 25,0 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,3 punktga kamaydi.




**Yanvar – sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		<i>2019–yil</i>	<i>2020–yil</i>
I. YaIM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	92,2	97,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	7,8	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	43,2	43,0
	Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	31,5	32,0
	sanoat	22,7	23,0
	qurilish	8,8	9,0
	Xizmatlar	25,3	25,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	5,6	5,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,9	3,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	15,8	16,1



Yanvar – sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

7,8



92,2

- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Mahsulotlarga sof soliqlar

2019- yil

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



43,2

Sanoat



22,7

Qurilish



8,8

Xizmatlar



25,3

2020- yil

43,0



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

23,0



Sanoat

9,0



Qurilish

25,0



Xizmatlar

2,7





97,3

- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Mahsulotlarga sof soliqlar

Solishtirma narxlarda hajm o'zgarishlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,1 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 43,0 %), sanoatda – 102,0 % (23,0 %), qurilishda – 100,3 % (9,0 %), xizmatlar sohasida – 97,9 % ni (25,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida solishtirma narxlarda hajm o'zgarishlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 88,6 % (5,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqada 104,1 % (3,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 99,6 % (16,1 %) dan iborat bo`ldi.



Yanvar – sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020– yilning yanvar – sentabrida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, sanoat va qurilish tarmoqlari mos ravishda YaHMning 1,2 f.p., 0,4 f.p. va 0,1 f.p. o'sishiga ijobjiy hissa qo'shdi. Xizmatlar sohasining salbiy hissasi - 0,5 f.p. ni tashkil etdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,1 f.p. ga ko'paydi.




2020– yil yanvar- sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020– yil yanvar – sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019– yil yanvar – sentabridagi narxlarga nisbatan 106,3 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari qurilishda – 115,5 %, xizmatlarda – 114,7 % va sanoatda – 112,7% qayd etildi.



Yanvar – sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig`ma axborot – tahliliy ishlar bo`limi boshlig`i
U.Elmuratov
Tel: (370) 67 236-70-00